



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

QOROVULBOZOR TUMANINING IQTISODIY-GEOGRAFIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

I. E. Mirzoyeva

Buxoro davlat universiteti dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

N. Rahmatova

Geografiya ta'lim yo'nalishi II- bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanining iqtisodiy-geografik rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tumanning geografik o'rni, tabiiy resurslari, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi hamda ekologik muammolari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, hududning iqtisodiy salohiyati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Qorovulbozor tumani, iqtisodiy geografiya, neft-gaz sanoati, qishloq xo'jaligi, tabiiy resurslar, ekologiya, melioratsiya.

Abstract

This article analyzes the economic and geographical development characteristics of the Karaulbazar district of the Bukhara region. The geographical location of the district, natural resources, development of industry and agriculture, as well as environmental problems are covered on the basis of scientific sources. The economic potential of the region and the directions of its future development are also shown.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Keywords: Karaulbazar district, economic geography, oil and gas industry, agriculture, natural resources, ecology, land reclamation.

Qorovulbozor tumani 1993-yil 12-yanvarda tashkil etilgan bo'lib, Buxoro viloyatining janubiy qismida joylashgan. Tuman maydoni 2,2 ming km² ni tashkil etadi. Janubda Qashqadaryo viloyatining Muborak tumani, sharqda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumani, g'arbda Olot tumani va shimolda Buxoro tumani bilan chegaradosh. Qorovulbozor tumanining tabiati, iqtisodiy-ijtimoiy xususiyati o'ziga xos.

Birinchidan u viloyat markazidan olisda joylashgan, ikkinchidan viloyatdagi eng janubiy tuman, uchinchidan tuman hududining reliefi geomorfologik jihatdan bir muncha parchalangan. Bu yerda alohida ifodalangan gumbarsimon platalar qadimgi daryo deltalari hamda baland platosimon tekisliklar nihoyat, yangi o'zlashtirilgan yerlar-Qorovulbozor vohasi mavjud.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hududlarning tabiiy resurslari va iqtisodiy-geografik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumani tabiiy resurslarga boyligi, qulay transport-geografik o'rni hamda neft-gaz sanoatining rivojlanganligi bilan respublikaning muhim iqtisodiy hududlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida tumanda yirik sanoat korxonalari tashkil etilib, ishlab chiqarish hajmi va aholi bandligi sezilarli darajada oshdi.

Hududning relyefi asosan tekisliklardan iborat bo'lib, cho'l landshaftlari ustunlik qiladi. Tuproqlari sur-qo'ng'ir, qumoq, taqir va sho'rxok tuproqlardan tashkil topgan. Iqlimi keskin kontinental bo'lib, yoz oylarida havo harorati +45–46°C gacha ko'tariladi, qishda esa –22°C gacha pasayishi mumkin. Yillik yog'in miqdori 150–155 mm ni tashkil etadi[1].

Tumanda Saritosh, Jarqoq va Setalantepe hududlarida neft va gaz zaxiralari mavjud bo'lib, ular hudud iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Qorovulbozor tumani iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i neft-gaz sanoatidir. Tumandagi Setalantepa, Saritosh, O‘rtabuloq va Ko‘kdumaloq konlarining o‘zlashtirilishi sanoatning jadal rivojlanishiga turtki berdi. Ayniqsa, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi nafaqat tuman, balki respublika miqyosidagi yirik sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi.

Qorovulbozor hududida neft va gaz sanoatining shakllanishi 1964-yilda neft konlarining o‘zlashtirilishi bilan boshlangan. Mazkur korxonaning asosiy vazifasi G‘arbiy O‘zbekiston neft konlaridan qazib olinadigan xom neftni yig‘ish, saqlash hamda temir yo‘l sisternalari orqali Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodiga yetkazib berishdan iborat bo‘lgan.

Faoliyatning dastlabki bosqichlarida Saritosh, Jarqoq, Sho‘rchi, Gajdi va Ko‘ltog‘ konlaridan qazib olingan neft ushbu korxona orqali qayta ishlash korxonalariga jo‘natilgan. Keyinchalik Ko‘kdumaloq neft konining ishga tushirilishi bilan neftni qabul qilish, saqlash va jo‘natish hajmi keskin ortdi. Natijada korxonaning ishlab chiqarish quvvati kengayib, logistika tizimi yanada takomillashtirildi. Hozirgi kunda korxonada neftni uzluksiz qabul qilish va iste’molchilarga yetkazib berish jarayoni sutka davomida to‘rt smenada tashkil etilgan. Korxona orqali har kuni yuzlab tonna neft mahsulotlari iste’molchilarga jo‘natilib, bu hudud neft sanoati infratuzilmasining muhim bo‘g‘inlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Ayni vaqtda korxonada 100 nafardan ortiq mutaxassis va ishchi-xodim mehnat qilmoqda[2].

Sanoatning rivojlanishi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratilib, aholi turmush darajasi yaxshilanmoqda. Shu bilan birga, tumanning eksport salohiyati ham ortib bormoqda.

Qorovulbozor tumanida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Tuman da 14,3 ming gektar sug‘oriladigan yer maydoni mavjud bo‘lib, uning 6 ming gektarida paxta, 6,5 ming gektarida g‘alla yetishtiriladi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Bundan tashqari, sabzavot, poliz va bog‘dorchilik mahsulotlari ham ishlab chiqariladi.

So‘nggi yillarda issiqxona xo‘jaliklari va tomorqachilik rivojlanib bormoqda. Navbahor mahallasida istiqomat qiluvchi dehqon xo‘jaliklari issiqxonalarda pomidor va bodring yetishtirib, yil davomida bir necha marotaba hosil olishga erishmoqda. Bu esa aholining daromadlarini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Chorvachilik tarmog‘ida qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik va qorako‘lchilik rivojlangan. Tumanda qorako‘l terisi yetishtirish ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, Qorovulbozor tumanida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 108,3 foizga o‘tib, viloyatdagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri qayd etildi[4]

Sanoatning rivojlanishi bilan bir qatorda ekologik muammolar ham yuzaga kelmoqda. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi atrofidagi hududlarda neft mahsulotlari bilan ifloslanish holatlari kuzatilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, neft mahsulotlari tuproqning fizik-kimyoviy xossalriga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, uning unumdorligini pasaytiradi.

Qorovulbozor tumanida sug‘oriladigan tuproqlarning 74 foizi turli darajada sho‘rlangan. Shundan qariyb 50 foizi kuchsiz, 14 foizi o‘rtacha va 10 foizga yaqini kuchli hamda juda kuchli sho‘rlangan tuproqlardan iborat. Bu holat qishloq xo‘jaligi samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli meliorativ tadbirlarni kuchaytirish va zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, Qorovulbozor tumani Buxoro viloyatining iqtisodiy jihatdan eng istiqbolli hududlaridan biri hisoblanadi. Tumanning boy neft-gaz resurslari, rivojlangan sanoat korxonalari va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uning iqtisodiy salohiyatini belgilab beradi. Shu bilan birga, tuproq sho‘rlanishi va



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

texnogen ifloslanish kabi ekologik muammolarni bartaraf etish hududning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va ekologik muhofaza tadbirlarini kuchaytirish orqali tumanning iqtisodiy-geografik rivojlanish darajasini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Nazarov I.,Rashidov U.Qorovulbozor tumani.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Mirzoeva I.E., Qalandarova D.D. Geoecological principles of effective landscape organization of Karaulbazar district/ E3S Web of Conferences 389, 04019 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338904019> UESF-2023 Skopus
- 3.Abduroziqova S.U. Texnogen chiqindilar bilan ifloslangan tuproqlarning morfologik va genetik qatlamlarining o‘zgarishi (Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani misolida). – 2023. – B. 387–392.
- 4.Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.
- 5.Qorovulbozor tumani hokimligi ma’lumotlari.